

MUSIQA FANLARINI O'QITISHDA MUSIQA O'QITUVCHISI UCHUN KASBIY
KO'RSATMALAR

Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa san'atining yoshlar tarbiyasida kuchli ta'sirga ega uning ruhiy olamini shakillantirishda nechog'liq muhim omillardan biri ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Shuningdek musiqa fanlarini o'qitishda musiqa fani o'qituvchilari uchun kasbiy pedagogik ko'rstamalar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy tarbiya, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya, pedagogik hamkorlik, ta'lim samaradorligi, jamoa bo'lib (xor) ijro etish, cholg'uga jo'r bo'lish,

O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yoshlar tarbiyasida musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rinn tutadi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rinn tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chucur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'mni borligi ayni haqiqat, bolani estetik tarbiyalashdek sharafli ishni to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak.

Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb yetadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsiyonal tuyg'u uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "...musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" – deya ta'kidlaydilar. Demak, musiqa san'ati va ta'lim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan insonning ichki olamini boyitadigan, iymon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli kuch-ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak, deb hisoblagan.

Har bir darsni alohida xususiyati mavjud. Musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos sirlari bo'ladi. Musiqaga muhabbat bilan qiziqish bilan qarash, bolalarga bor bilimlarini

berishga intilish, va ishga sidqidiladan berilgan inson ish jarayonidagi hayoti bilan yashaydi. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Tajribada pedagoglar musiqa fanini murakkabligini va o'qituvchi bilan sozandaning bog'liqligini ko'rsatib o'tganlar. Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmay, o'zini fanini ham yaxshi bilishi lozimdir. Bolalarni musiqa san'ati bilan tarbiyalashi, dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi birinchi darajali ahamiyatga egadir. Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotsional estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi. Musiqa o'qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir. Musiqa asbobida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro etish bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobda yaxshi ijro etishni juda muhimligi quyidagicha ko'rsatiladi.

Birinchidan: Jonli ijro etish – sinfda kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo'lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlanı qaytarish.

Uchinchidan: Musiqa asbobida ijro eta oladigan musiqa o'qituvchisi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani o'zi ijro etish naqadar qiziqarligini va muhimligini amaliyotda ko'rsatib o'tadi.

Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobini yaxshi ijro etishi bilan cheklanib qolmay yaxshi tovush, dirijyorlik jesti bilan musiqa nazariyasini mukammal bilmog'i va ijod qilishi lozimdir. O'qituvchini shaxsiyatini musiqa fanining taqdirini hal qiladi. O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham lozimdir. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini egallay boshlaydi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, o'quvchilarning ichki tuyg'ularini sezishga o'rganadi. Kuzatish 1-7 sinfgacha davom etadi. Eng asosiysi: o'qituvchi asarni ijro etibgina qolmay balki uning mazmuni bilan ham tanishtirish lozim, buning uchun o'qituvchini nutqi ravon, qisqa, hamda tushunarli bo'lishi kerak.

Musiqa madaniyati darsida o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchini asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at-musiqa olamiga olib kiradi. Va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa mavzularga yo'naltirish mumkin. O'qituvchini musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa va qiziqarli bo'lishi kerak va o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozimdir. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqatda bo'lган usulini qo'llasa, musiqa haqida to'g'ri mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarrishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko'proq o'quvchilar baxsga o'tkadilar. Bu faoliyatida o'qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to'g'ri xulosalarga erishtirilishi lozim. Musiqa darslarning samarali bo'lishi uchun albatta yangi pedagik texnologiyalar bilan dars olib borish lozim.

Buning uchun quyida pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari bilan tanitshib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

Pedagogik texnologiyalarning turlari ko'p bo'lib yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi. Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

Tushuntirish – axborotning ma'no-mazmunini, undan foydalanish Tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga etkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tushunish - axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

O'rgatish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

O'ganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi.

- 1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni tugri takrorlash;
- 2) ularni amalda faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- 3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayoning tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, ular o'zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog'liqlikda amal qiladi:

Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallahsga o'rnatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilanadi. Interaktiv metodlar

bu – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi –talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi – talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi – talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi – talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi – talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnolgiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlataladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi –talabaga bog'liq.

O'qituvchi bilan bir qatorda o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, TSONi, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoldiyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qissa qilib aytganda, o'quvchi – talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit, holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi – talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar. Usullarni bilishi kerak bo'ladi. har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyixalashtioilgan texnologik xaritasiga bog'iq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Scinece and its peculiarities. *International Journal of Innovative Analyeses and Emerging Technology*.
- 2.Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. *Analytical Journal of Education and Development*, 1(06).
- 3.Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 67-71.
- 4.Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (4-2 (95)), 211-214.
- 5.Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rni. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*.
- 6.Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
- 7.Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
- 8.Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKİSTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.
- 9.Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKİSTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.
- 10.Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
- 11.Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
- 12.Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKİSTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.

- 13.Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
- 14.Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(4).
- 15.Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(3), 127-130.
- 16.Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 329-331.
17. Inomjonovna, R. I. (2022). INTERACTIVE GAMES IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
18. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. *World scientific research journal*, 2(1), 29-32.
19. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES ARE THE MAIN TOOL OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN AND THE RELATIONSHIP WITH OTHER ACTIVITIES. *World scientific research journal*, 2(1), 25-28.
20. Inomjonovna, R. I. (2022). METHODS OF FORMATION OF IMAGINATION, THINKING AND CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *World scientific research journal*, 2(1), 58-62.
21. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION AS A DEPARTMENT OF INTEGRATIVE CONTENT. *World scientific research journal*, 2(1), 63-66.
22. Рахматова, И. И. (2022). ПРОБЛЕМА СТРЕССА В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(4), 108-111.
23. Рахматова, И. И. (2022). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА В СФЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(4), 104-107.
24. Inomjonovna, R. I., & Erkinovna, E. N. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL FACTORS FOR PREVENTING AGGRESSIVE SITUATIONS CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 12(2), 29-34.
25. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. *World scientific research journal*, 2(1), 29-32.
26. Inomjonovna, R. I. (2022). THE IMPORTANCE OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(2), 104-108.
- 27.Рахматова, И. И. (2023). АРТ-ТЕРАПИЯ КАК ЭФФЕКТИВНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ДЕТЕЙ С ТРАВМАМИ (ВО ВРЕМЯ ВОЙНЫ, НАСИЛИЯ, СТИХИЙНЫХ БЕДСТВИЙ). *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 192-198.

- 28.Рахматова, И. И. (2023). УЧЕНИЯ О ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАСЛЕДИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 207-215.
- 29.Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. *Вестник Казахского национального медицинского университета*, (2-1), 628-629.
- 30.Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. *Scientific Impulse*, 1(4), 288-291.
- 31.Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. *Scientific Impulse*, 1(4), 292-296.
- 32.Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
- 33.Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 206-210.
34. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF cREATIVE COMPETENCE OF EDUCATORS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Journal of new century innovations*, 22(1), 125-129.
35. Inomjonovna, R. I., & Xolmirzayevna, X. N. (2023). TYPES, METHODS AND METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY KNOWLEDGE AND APPLICATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(3), 92-97.
36. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF IMAGING SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(5), 74-79.